



CANADA

INTERNATIONAL SCIENTIFIC
ONLINE CONFERENCE

INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION



23 MAY
2024 YEAR

CANADA, OTTAWA





**INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND
RESEARCH IN EDUCATION**
International scientific-online conference

**Part 29
May 23rd
COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS**

CANADA 2024

Saidov Amirbek <i>ECONOMIC CONSEQUENCES OF UNEMPLOYMENT IN THE DIGITAL ECONOMY: CURRENT PROBLEMS AND SOLUTIONS</i>	
Saidkulova Firuza Farmonovna <i>IMPROVEMENT OF STRATEGIC MANAGEMENT EFFICIENCY ASSESSMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ON THE BASIS OF INTEGRAL INDICATORS</i>	212
Saidkulova Firuza Farmonovna <i>POSSIBILITIES OF USING THE MINTZBERG STRATEGY IN ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF HIGHER EDUCATION SYSTEM</i>	218
SH.J.Gaipov SH.B.Allanazarov O.K.Тлейов <i>YO'LOVCHI TASHISHNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARI VA INNOVACIYALARI</i>	222
A.R.Qunnazarova I.B.Adilbaev, J.D.Qutlimuratov, A.R.Qunnazarova <i>YUKLARINI TASHISHDA AVTOMOBIL TRANSPORTINING AHAMIYATI</i>	226
Saidova Zulfizar Khudoyberdievna M.K.Akhmedova O.A. Abdullaeva Sh.Sh.Allaberganov L.O.Omonova <i>ART IN UNITED KINGDDOM</i>	229
Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Boboqulova Ozoda Bahrullayeva Mokhichekhra Boymuminov Shoxrux Omonova Laylo Odiljon qizi <i>THE ROLE OF SPORT IN OUR LIFE</i>	233
Saidova Zulfizar Xudoyberdiyevna Xushmamatova Nigora Urolovna G'aniyeva Sitora Furqatovna Omonova Laylo Odiljon qizi <i>XORIIY TILNING BIZNES RIVOJIDAGI ROLI</i>	237
Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Najmitdinova Xolida, Odilov Jasur Omonova Laylo Odiljon qizi <i>GERMANIYA VA O'ZBEKISTONDAGI URF-ODATLAR</i>	240
Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Kamolova Sitora Jurabek kizi Jalolova Rukhshona Shakhobiddin kizi Omonova Laylo Odiljon kizi <i>SEMANTIC AND LINGUISTIC RESEARCH OF FASHION DISCOURSE IN UZBEK AND GERMAN</i>	245
Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Sayfulloyeva Sevara, Tohirova Marjona	251

TA'LIMDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING O'RNI

Saidova Zulfizar Khudoyberdievna*Buxoro davlat Universiteti, Ingliz tili kafedrasi o'qituvchisi (PhD)***Sayfulloyeva Sevara, Tohirova Marjona***Buxoro davlat Universiteti 3-kurs talabalari***Omonova Laylo Odiljon qizi***11-6Ing20 guruhi talabasi*

Abstract. *This article reflects on the role of modern technologies in improving the quality of Education.*

Keywords: *educational process, educational technology, modern technologies, pedagogical technologies.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ta'lim sifatini oshirishda zamonaviy texnologiyalar o'rne haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim-tarbiya jarayoni, ta'lim texnologiyasi, zamonaviy texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar.*

Аннотация: *В этой статье рассматривается роль современных технологий в повышении качества образования.*

Ключевые слова: *учебно-воспитательный процесс, образовательная технология, современные технологии, педагогические технологии.*

Ta'lim–tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo'nalishlari ulardan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya'ni texnologiyalarga aylanib bormoqda. Xuddi shu kabi ta'lim-tarbiya sohasida ham songgi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi. Pedagogik texnologiya tushunchasi ta'lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan, va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o'z o'rniga ega bo'lgan keng ko'lamli serqirra tushunchadir. Pedagogik texnologiyada ishlab chiqarish sohalaridagi turli texnologiyalardan farqli ravishda ishlov beriladigan material o'quvchi (ta'lim oluvchi) ning aqliy, ruhiy, axloqiy sifatleri bo'lib, ularga o'qituvchi, tarbiyachi tamonidan ma'lum maqsadlarga erishish yo'lida har turli ta'sirlar o'tkaziladi. Pedagogik texnologiya tushunchasi dastlab XX asrning o'rtalarida AQSHda paydo bo'lib, 1940-50 yillar ortasigacha «Ta'lim texnologiyasi» deb yuritilib kelgan va bu ibora texnika vositalaridan foydalanib o'qitishga nisbatan qo'llanilgan. 50-60 yillarda programmashtirilgan ta'lim nazarda tutilgan, 70- yillarda «pedagogik texnologiya» iborasi qo'llanilib u avvaldan loyihalashtirilgan va aniq belgilangan maqsadlarga erishishni kafolatlovchi o'quv jarayonini bildirgan. 1979 yilda AQSHning Pedagogik kommunikatsiyalar va

texnologiyalar assotsiatsiyasi tomonidan Pedagogik texnologiyani kompleks, integrativ jarayon deb asoslangan va 80- yillarning boshidan esa pedagogik texnologiya deb ta'limning kompyuterli va axborot texnologiyalarini yaratishga aytilgan. Hozirda bu tushunchaga quyidagi turli ta'riflar berilgan: Texnologiya – biror ishda, san'atda, mahoratda qollaniladigan usullar, yo'llar yig'indisi. Texnologiya – ishlov berish, ahvolni o'zgartirish san'ati, mahorati, qobiliyati metodlar yigindisi. (V.M.Shepel).

Pedagogik texnologiya – Bu o'qituvchi (tarbiyachi)ning o'qitish (tarbiya) vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta'sir korsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayondir. (N.Saydaxmedov). Pedagogik texnologiya – o'qitishning, ta'limning shakllari, metodlari, usullari, yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yigindisi va komponovkasi (joylashuvi)ni belgilovchi psixologik tartiblar (ustanovka)lar majmuasi;u pedagogik jarayonning tashkiliy-uslubiy vositalaridan iborat (B.T.Lixachev). Pedagogik texnologiya – texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi. (YUNESKO). Pedagogik texnologiya – bu o'qitishga o'ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalanishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga kochirilgan tasviri, ta'lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.(B.L.Farberman). Ushbu aytilganlar asosida pedagogik texnologiyaning quyidagi eng qisqa va umumlashtirilgan ta'rifini keltirishimiz mumkin: “Pedagogik texnologiya – barkamol insonni shakllantirish faoliyati”.Shu bilan birga pedagogik texnologiyaning keng kolamli, serqirra tushuncha ekanligini hisobga olgan holda uning quyidagi yana bir nechta ta'riflarini keltirishimiz mumkin. Pedagogik texnologiya – axborotlarni ozlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunlarni hamda axborotlar orasidagi turli bogliqliklarni ochish orqali yangi axborotlar yaratishga orgatish jarayonidan iborat. Pedagogik texnologiya – bu o'z oldiga ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi, butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonini texnik resurslar va odamlarning o'zaro munosabatlarini hisobga olgan holda yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodidir. Pedagogik texnologiya turlari: Pedagogik texnologiyalar uzluksiz ta'lim turlari, ta'lim sohalari hamda ayrim belgilari boyicha turlarga ajratiladi.

Uzluksiz ta'lim turlari boyicha maktabgacha ta'lim, boshlangich ta'lim, tayanch ta'lim, maktabdan tashqari-qoshimcha ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi pedagogik texnologiyalariga bolinadi. Shu bilan birga, ta'lim sohalari boyicha ona tili, xorijiy tillar, adabiyot, ijtimoiy, tabiiy, aniq fanlar, san'at, sport, texnika, texnologiya, amaliy fanlar, kasb-hunarlar, maxsus ta'lim pedagogik texnologiyalari mavjud. Hozirda mavjud bolgan pedagogik texnologiyalarni bir qancha belgilariga qarab turlarga ajratiladi. Bu belgilar

haqida gapirishdan oldin shuni eslatib o'tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimo kompleks xarakterga ega bo'lib, u faqat bittagina omildan, metoddan, tamoidan foydalanmaydi. Ya'ni quyida keltiriladigan turlarigagina xos bo'lgan monotexnologiyalar aslida mavjud emas. Lekin har bir pedagogik texnologiyada asosiy e'tibor ta'lim jarayonining u yoki bu tomoniga qaratilishi natijasida ularni shu belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. J. Yo'ldoshev, S. Usmonov, „Pedagogik texnologiya asoslari“, T., 2004
2. J. Yo'ldoshev, „Ta'lim yangilanish yo'lida“, T., 2000
3. Саидова, З. Х. (2016). Использование новых технологий на уроках английского языка. Молодой ученый, (7), 703-706.
4. Saidova, Z. (2022). СТРУКТУРНО-ГРАММАТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПСИХИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ И ЛИЧНОСТНЫХ СВОЙСТВ КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ ЗОНА ФРАЗЕОЛОГИЗМ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz), 8(8).
5. Saidova, Z. (2021). Advantages and disadvantages of modular object-oriented dynamic learning environment (moodle) in the system of education. Центр научных публикаций (buxdu. uz), 8(8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4352.
6. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1024>. Khudoyberdievna, S. Z. (2022). The main features of translation of phraseology from english into uzbek. Scientific Impulse, 1(3), 523-526.
7. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Psychological bases Of the development moral and aethetic outlook of future vocational teachers // Научный журнал. 2017. №3 (16). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/psychological-bases-of-the-development-moral-and-aethetic-outlook-of-future-vocational-teachers>.
8. Khudoyberdievna, S. Z. (2021). Analysis of the concepts of emotions in Russian and English phraseological picture of the world. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2, 11-18.
9. Saidova Zulfizar Khudoyberdievna Teaching English through games // Научный журнал. 2017. №3 (16). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/teaching-english-through-games>.
10. Khudoyberdievna, S. Z. (1871). THE STUDY OF PHRASEOLOGY AND COMPARATIVE ANALYSIS OF PHRASEOLOGISMS REFLECTING THE SPIRITUAL STATE OF HUMAN. International Engineering Journal For Research & Development, 6, 222-225.
11. Khudoyberdievna, S. Z. (2021). Language Expressing Psychoemotional State of Human. In International conference on multidisciplinary research and innovative technologies (Vol. 2, pp. 108-113).